

MUNCHOQTEPA VA MILLIY USLUBDA TAYYORLANGAN
TAQINCHOQLARNI O'ZIGA XOS JIXATLARI

Umarov Ilhom Ibrohimovich

*Namangan muhandislik –texnologiya instituti “Dizayn” kafedrası
katta o'qituvchisi*

Nazarov Abduvohid Mamarasulovich

*Namangan muhandislik –texnologiya instituti “Dizayn” kafedrası
assistenti*

Qudratova Vasilaxon Baxodirxon qizi

*Namangan muhandislik –texnologiya instituti Dizayn (kostyum) ta'lim yo'nalishi
talabasi*

Olimjonova Dilnavoz Orifjon qizi

*Namangan muhandislik –texnologiya instituti Dizayn (kostyum) ta'lim yo'nalishi
talabasi*

Annotatsiya: *Mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, bu orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni hunarmandchilikka keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash bizning asl maqsadimiz. Biz ilmiy tataqiqot ishimizdan kelib chiqib bu topilgan va aniqlangan munchoqlarni yasalish materiallariga ko'ra guruhlarga **ajratdik**. Ularni o'rganish va tasniflash jarayonida boshqa yodgorliklardagi munchoqlar uchun ishlab chiqilgan tamoyillardan foydalanildi.*

Kalit so'zlar: *hunarmand, Farg'ona vodiysi, Taqinchoq, Munchoq, Aqiq, Minerologiya, bezak, binafsha rang, bilakuzuk.*

Аннотация: *наша изначальная цель-обеспечить занятость нашего народа через развитие национального ремесла, художественного и практического искусства в нашей стране, через которое мы в полной мере сохраняем богатое культурное наследие и исторические традиции нашего народа, привлекая к ремеслу незанятое население, особенно молодежь, женщин и малообеспеченные семьи. Мы разделили эти найденные и идентифицированные бусины на группы по материалам легализации, основываясь на нашей научно-исследовательской работе. В процессе их изучения и классификации использовались принципы, разработанные для бус из других памятников.*

Ключевые слова: *Хунарманд, Ферганская долина, ювелирные изделия, бусины, Агат, Минералогия, украшение, фиолетовый цвет, браслет.*

Annotation: *our original goal is to ensure employment of our people through the development of national craftsmanship, artistic and Practical Art in our country, through which we fully preserve the rich cultural heritage and historical traditions of our people, by attracting the Unin occupied population, especially young people, women and low-income families to craftsmanship. We divided these found and identified beads into groups according*


to the materials of the legalization, based on our scientific research work. In the process of their study and classification, principles developed for beads from other monuments were used.

Keywords: *hunarmand, Fergana Valley, jewelry, beads, Agate, Mineralogy, decoration, purple color, bracelet.*

Taqinchoqlar kundalik turmushda jamiyatni hamma qatlamlari: erkak va ayol, g'il va qiz bolalar foydalanadigan kostyum buyumlar qatoriga kiradi. SHuning uchun ular inson tanasi a'zolarini va ust-boshlarini ko'p qismini egallaydi. Taqinchoqlar bosh, bo'yin, peshona, ko'kraq qo'ltiq, bel, burun, quloq, chakkalarga taqilgan. Ularga bosh yezagi tagdo'zi, oltin tumor; peshona bezagi tillaqosh, bargak; quloq bezagi zirak (sirg'a); ko'krak bezagi zebigardon, murg'ak; soch bezaklari sochpopuq butun tirnoq, yarim tirnoq; burun bezagi arabak; yuz bezagi xolbinni; bo'yin bezagi bo'yintumor, bel bezagi kamar; qo'l bezagi bilakuzuk; barmoq bezaklari uzuk va boshqalar kiradi. Bizlar taqinchoqlarning etnografiyada saqlanib qolib, shu kunlargacha yetib kelganlarini bir

qismini keltirib o'tdik xolos[1]. Qadimda esa ular bundan-da ko'p bo'lgan. Munchoqlar (1-rasm) - taqinchoqlar ichida eng ko'p sonlisi va yaxshi saqlangani hisoblanadi.

Ularni o'rganish va tasniflash jarayonida boshqa yodgorliklardagi munchoqlar



(1-rasm)

uchun ishlab chiqilgan tamoyillardan foydalanildi. Bular birinchi navbatda Ye.M. Alekseeva[2] va B.A. Litvinskiy[3] ishlaridir. Yana bir tadqiqotchi T.N. Buligina Farg'ona vodiysi taqinchoqlariga bag'ishlangan maxsus dissertatsiya ishi tayyorlagan[1]. B.A. Litvinskiy klassifikatsiyasida 3300 dona munchoqdan foydalanilib uch guruh va 60 tip ajratilgan³⁶. T.N. Buliginada esa 51 ta tip ajratilgan. Bizlar faqat Munchoqtepa qabrlarini o'zidan 7000 dan ortiq munchoqlar to'plamini hisobini oldik. Agarda shu atrofdan yig'ilganlarini ham qo'shsaq, ularning soni 10.000 dan ortadi. Bularndan kelib chiqib, munchoqlarni kelgusida alohida mavzu sifatida tadqiq etish kerak deb hisoblaymiz.

Biz ilmiy tatabiqot ishimizdan kelib chiqib bu topilgan va aniqlangan munchoqlarni yasalish materiallariga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratdik.

1. Turli rangli shisha va pastadan yasalgan munchoqlar.

2. Marmar, kvarts, dolomit, granit va b. minerallardan munchoqlar

3. Yarim qimmatbaho va qimmatbaho toshlardan (aqiq, billur, lazurit, feruza)munchoqlar.

4. Hayvon suyaklaridan, yovvoyi va madaniy o'stirilgan meva danaklaridan munchoqlar.

5. Jez, sopol, yog'ochdan yasalgan munchoqlar.

O'z navbatida naqshlar bor yo'qligi, rangiga qarab mayda tiplarga bo'linadi: SHakli, rangiga ko'ra eng ko'p tarqalgan va xilma xil, 15 ta xil (tip) ajratildi. Ular shisha va pastadan yasalgan. Asosan ko'q havo rang, zangori, qizil, oq rangli munchoqlar uchraydi. Ushbu ranglarni bir-birlariga moslab ko'zli, hoshiyali, mozaika qabilidagi unchoqlar ham uchraydi. Ranglar asosan bir-biriga quyidagicha mos keladi: ko'k qizil bilan, ko'k oq bilan, qora oq bilan, zangori sariq bilan, havo rang qizil bilan birga olingan .

Munchoqlar qattiq turdagi minerallardan tayyorlangan. SHuning uchun ularning o'lchamlari kattaroq va unchalik murakkab bo'lmagan shakllarga ega va 10 ta xil aniqlandi. Bu guruh munchoqlarni tayyorlashda sodda dastgoxlardan foydalanishgan bo'lishi kerak.


Munchoqlari juda kam va 2 ta xil uchraydi. Aqiq [6]. munchoqlarga o'yib gul solib, keyin naqshlar oqartirilgan (2-rasm). Aqiq, agat – mineral. Xaltsedonning bir turi, katlamli yoki yo'l-yo'l bo'ladi. Qatlamlarda ranglarning har xil uyg'unlikda kelishiga karab quyidagi xillari farqlanadi: agat oniksi (oq va kora qatlamlar), karneol oniksi (qizil va oq), sardoniks (kizil-qo'ng'ir va oq), agatlar (zangori-kulrang va ok). Kimyoviy formu-lasi SiO_2 . A. dan har xil marjonlar, taqinchoqlar yasaladi, sanoatda esa hovoncha, hovoncha dastasi, tarozi prizmalari, elektr va suv o'lchov asboblarning tagligi, ko'nchilik sanoatida dazmollash g'altaklari va b. ishlanadi.



(2-rasm).Bu naqsh solish uslubi kimyoviy yo'l bilan amalga oshirilgan. Bu usul Abu-Rayxon Beruniyning «Minerologiya» asarida batafsil bayon etilgan. «Uzukka qo'yiladigan aqiq toshlarga ishqor yordami bilan yozadilar. So'ng uni olovga yaqinlashtiradilar, chizilgan narsa oqarib ketadi» [3]. Aqiqdan yasalgan munchoqlarda naqshlarga oddiy chiziqlar, tushunarsiz tasvirlardan iborat.

Farg'ona vodiysi uchun kamdan kam hodisa tilla suvi yuritilgan ikki dona munchoqni ham aytib o'tish kerak. Oltin suvi rangsiz oyna ustidan berilgan va bilinar-bilinmas saqlangan [tilla suvi yuritish uslubi haqida qarang:[4]


Munchoqlarini tayyorlash uchun tabiiy xom-ashyo: meva danaklari va urug'lari, o'riq gilos, xandon pista, jiyda, hayvon suyaklari (baliq umurtqa suyaklari, naysimon suyaklar) foydalanilgan (3-rasm).



(3-rasm).

Bulardan tashqari chig'anoq suyaklari ham uchraydi. Bu guruh munchoqlar bir oz jo'nroq va ko'hmaroqqa o'xshab ketadi, ulardan etnografik ma'lumotlarga ko'ra yaqin vaqtlargacha foydalanilgan. Ya'ni ular soch o'rimlariga, bosh kiyimga taqib yurilgan [4]. Danaklardan tizilgan munchoqlar shodasi ayollar va bolalar qabrlarida topildi. Bu guruh munchoqlar orasida ayniqsa baliq umurtqa suyaklaridan terib yasalgan munchoq-tumorlar e'tiborni tortadi (48 dona). Chunki, ular juda aziz hisoblangan ko'rinadi. Sabab, baliq tumorlar faqat ikki tobutda aniqlandi. Har ikki tobutdagi marhumlar yoshi ulug' ayollar edi (45-50 yosh). Shundan kelib chiqib baliq umurtqasidan bo'lgan munchoq-tumorni oilani har qanday a'zosi ham taqib yura olmagan degan fikrni aytish mumkin. Farg'onani boshqa yerlarida bunday tumorlar ma'lum emas. Uzoqdagi o'xshashliklardan Markaziy Qizilqumdagi Kokpatas mozar-qo'rg'onidagi baliq umurtqa suyaklaridan munchoqlarni keltirib o'tish kerak [4]. Umurtqa suyakdan yasalgan munchoq-tumorlar etnografiyada ham qayd etilgan. Ular marjon shodasi tarkibiga kirganlar va «suv balosi» bilan bog'laganlar. [4] Suyakdan tayyorlangan munchoqlar boshqa yodgorliklarda kam uchraydi, ularga yaqin o'xshashlari Sho'rabashot yodgorligidan topilgan [4]. Munchoqlarning soni 19 dona. Ularning shakli boshqalardan farq qilmaydi. Yog'och va jez munchoqlarni ko'p qirralilari ajralib turadi va 6ta xil qayd etildi. Sopol munchoqlar (2 dona) nimagadir urchuqboshi ko'rinishida edi. Umuman bu guruh unchoqlar ayniqsa yog'och munchoqlar kam uchraydi. Jumladan, vodiya faqat ikki

yodgorlikda yog'ochdan yasalgan munchoqlar topilgan: Usto Mullo mozorida bir dona³⁷ va Xonqiz I mozorida 74 dona[5]. Ayniqsa, Xonqiz I mozoridagi ko'p qirrali yog'och munchoqlar Munchoqtepadagilar juda o'xshaydi. Jezdan yasalgan va tik turgan odam haykalchasi, kallasida tsilindrik ko'rinishli bosh kiyimi bor, yuzi esa aniq tasvirlanmagan. Qo'llari beliga qo'yilgan, qo'ltig'i ostidan ip o'tkazish uchun mayda teshikcha qilingan, bu teshikchalarda ip qoldig'i ham saqlangan edi. Bu ilohiy topinch buyumi - tumor vazifasini bajargan (4-rasm).




(4-rasm:)

Bu taqinchoq tumor sifatida ust-boshga mahkamlangan bo'lishi mumkin. Sirg'alarni xillari unchalik ko'p emas. Oddiy jez simdan aylana shaklida (2 dona) (3-rasm:) va bargga o'xshatib quloqqa o'tkazish uchun ilmoqli qilib jezdan yasalgan sirg'alar (2 dona) . Nihoyat, jezdan bejirim qilib yasalgan-quloqtozalagich (5-rasm:).



(5-rasm:).

Uni bir tomoni qoshiqqa o'xshatib shakl berilgan, boshqa tomoni uchli qilingan. B.A. Litvinskiyning fikricha bu buyum tish tozalagich va to'g'nog'ich vazifasini bajargan[5]. Uzuqlarni ikki xili ko'zli va romka ichida ko'zlisi uchraydi. Uzuk ko'zida oq pastadan yasalgan, ko'zi ham saqlanib kolgan edi (6-rasm)



(6-rasm)

Munchoqlar (3778 dona) sag'anadagilardan farq qilmaydi. Lekin yakka tartibda ko'milgan marhumlarda munchoqlar son jihatidan guruhlar bo'yicha farq qiladi. Jumladan, IV guruh munchoqlari sag'analarda yakka tartibdagi qabrlarga (9,9%) nisbatan ikki marta ko'p (19,3%) uchraydi (jadvalga qarang). Munchoqtepa I va II mozorlaridagi III-IV guruh munchoqlar son jihatidan bir xilda qayd etildi. Har xil guruhlarini tahlilini ko'rsatishicha ustalar aynan mahalliy ashyolardan foydalanib munchoqlar yasashga harakat qilganlar. Masalan 84,5% munchoqlar shisha va pastalardan yasalgan ekan. Yakka tartibdagi qabrlarda munchoqlar asosan ayollar bilan birga aniqlandi. To'g'ri erkaklar qabrlarida ham munchoqlar bor, ular 15 dona. Boshqalardan farqi erkaklar bilan birga qo'yilgan munchoqlar katta-katta va ular bilak-uzuk kabi qo'lga taqilgan yoki o'qdon (sadoq), kamarlarni bezagan bo'lishi mumkin. Mayda munchoqlarni ko'plab jasadlarni qo'l, bo'yin, ko'krak va oyoq qismlaridan topilishi marhumlar ko'ylaklari ko'p sonli munchoqlar bilan bezatilganini ko'rsatadi. Demaq munchoqlarni o'rganish, ularni tayyorlangan materialari, yasash texnikasi va shakl-shamoyillari Farg'onaning ilk o'rta asrlar san'ati va ma'lum ma'noda ba'zi e'tiqodlari bo'yicha yangi ma'lumotlarni beradi. Ularni yaxshiroq o'rganish uchun nimadan yasalganiga qarab, beshta katta guruhga ajratdik. Munchoqlarning 80% dan ziyod qismi shisha va pastadan yasalgan. Jamiyatda ularga talab katta bo'lgan va ular maxsus ustaxonalarda minglab, o'n minglab nusxalarda bozor uchun ishlab chiqarilgan. Bu davrda jamiyatni deyarli barcha a'zolari munchoqlar shodasi taqib yurishi va ular bilan ust-boshi, qurol-yarog'ini bezashi oddiy holga o'xshar edi. Yakka qabrlarda sag'analarga nisbatan ko'proq munchoqlar uchradi. Hatto, bir qabrda 1195 ta munchoq qayd etildi. Bu narsa bir mozorda xar xil dafn etishni uchrashi mulkiy tabaqalanish bilan emas, balki diniy qarashlar bilan bog'likligini ko'rsatadi. Albatta, mulkiy tengsizlik bo'lgani ayrim munchoqlarning tarqalishida yaqqol seziladi. Buni III guruh - yarim qimmatbaho toshlardan yasalgan munchoqlar sonida ham kuzatish mumkin (0,5-1%).

Xulosa. Xulosa qilib aytganda taqinchoqlar ichida eng suyuklisi yumaloq va tsilindr shakllilari bo'lgan. Sag'analardagi munchoqlarni beshdan birini tabiiy meva danaklari va xayvon suyaklaridan yasalganlari tashkil etgan. Munchoqlar boshqa taqinchoqlar kabi komplekslar vaqtini belgilashda ishonchli dalil bo'la olmaydi. Chunki taqinchoqlar oilaviy yodgorlik sifatida avloddan avlodga o'taveradi. Shularga qaramay munchoqlar, taqinchoqlar komplekslarni davriy jihatdan oz bo'lsadan bir-biridan farqlari kuzatilmoqda. Masalan, Munchoqtepa materiallari ichida V-VI asrlarda ayrim munchoqlar marmar, granitdan yasalgan bo'lsa, VII-VIII asrlarga kelib ular uchramaydi. Umuman olganda keltirib o'tilgan barcha munchoqlar vaqti V-VIII asrlar bilan belgilanishi mumkin.

ADABIYORLAR:

1. Булыгина Т.Н. Украшения древних ферганцев первой половины I тысячелетия нашей эры как исторических источник: Автореф. дис. канд. ист. наук. – М., 1987. -24 с.
2. Литвинский Б.А. Курганы и курумы Западной Ферганы. – М.: Наука, 1972. -258 с.

3. Абу Райхан Беруни. Собрание сведений для познания драгоценностей. –М., 1963. –519 с.
4. Борозна Н.Г. Некоторые материалы об амулетах-украшениях населения Средней Азии // Домусульманское верование и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. - С. 281-297.
5. Литвинский Б.А. Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы. – М.: Наука, 1978. - 216 с
6. Damirovich, M. R., Kholikulovna, M. E., & Ibragimovna, A. S. (2022). THE USE OF INNOVATIVE TECHNIQUES IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. *Ijodkor o 'qituvchi*, 2(19), 483-488.
7. Damirovich, M. R., & Ibragimovich, T. I. (2022). Sattarovich AU THE ROLE OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN PROMOTING THE IDEAS OF RELIGIOUS TOLERANCE AND INTERNATIONAL HEALTH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10, 1.
8. Дехканбаева, М. Н., Накибов, К., & Мустаев, Р. (2019). ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ОПУСТЫНИВАНИЯ. *Экономика и социум*, (11), 939-942
9. Мустаев, Р. Д., & Абдуллаев, С. А. (2020). АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИИЛАР ДАВРИДА АХЛОКИЙ-ЭСТЕТИК ГОЯЛАРНИНГ РИВОЖЛАИИШИ. *Интернаука*, (24-3), 23-24.